

FASILITATORLARNING VAZIFALARI

Sabrina Xamidova

Guliston davlat pedagogika instituti o'qtuvchisi

O'qituvchi-fasilitator ishtirokchilar faoliyati harakat yo'nalishlari va vositalarni ko'rsatishga qodir bo'lishi lozim.

Fasilitator maqomida bo'lgan o'qituvchi to'g'ri javoblarni bilmasa ham, ularni (to'g'ri javoblarni) topish yo'llarini bilishi va ishtirokchilarni to'g'ri yo'naltira bilishi shart.

Fasilitator o'qituvchining vazifalarini umumlashtirgan holda quyidagicha belgilash mumkin. O'qituvchi-fasilitator axborot almashinishi jarayonining yo'naltiruvchisidir. O'qituvchi fasilitatorning huddi shu jihatni uni ekspertdan ajratib turadi. Chunki ekspert yo'lni topib bersa, o'qituvchi-fasilitator harakatlanishiga yordam beradi.

Fasilitator-menejer:

Imkoniyatlarni tahlil qiladi, to'liq tavakkalchilik qilmaydi va qaror qabul qiladi.

Uning faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- strategiya va harakatlarni rejalashtiradi
- ishtirokchilarga ko'rsatma beradi va boshqaradi
- ishtirokchilarni rag'batlantiradi va motivatsiyalaydi
- ishtirokchilar bilan hamkorlik qiladi
- tashabbusni baholaydi, taqdirlaydi yoki jazolaydi
- hisobot beruvchi
- ishtirokchilar o'rtaida nizo kelib chiqsa, vositachilik qiladi (o'rtaga tushadi)
- o'zini qaror qabul qiladigan shaxs deb hisoblaydi.

Fasilitator – ma'ruzachi:

Bilim beradi.

Uning faoliyati kuyidagilar bilan belgilanadi:

- darslarni rejalashtiradi
- mashg'ulot uchun kerak bo'ladigan materiallarni tayyorlaydi va ulardan foydalanadi
- ishtirokchilarni bahsga rag'batlantiradi va auditoriyani o'qishga motivatsiyalaydi
- o'qitishni yengillashtirish uchun didaktik uslublarni qo'llaydi
- tushuntiradi
- tekshiradi (sinaydi)

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-IYUN,2024

- seminar yoki o‘qitish samaradorligini baholaydi
- o‘zini auditoriyadan ko‘ra bilimliroq deb biladi.

Fasilitator - trener:

Ko‘nikmalarni rivojlantirishga yoki malakani oshirishga harakat qiladi.

Uning faoliyati quydagilardan iborat:

- seminar yoki amaliy bilimlarni rejalashtiradi
- turli metodlarni ishlab chiqadi va qo‘llaydi
- ishtirokchilarga tasalli beradi va yaxshi kommunikatsiyani ta’minlaydi
- ko‘nikamalarni namoyish qiladi
- ish jarayonida qo‘llash bo‘yicha xulosalar beradi
- enerdjayzerlar o‘tkazadi
- seminar va o‘qitish samaradolligini baholaydi
- o‘zini ishtirokchilardan ko‘ra, aqlliyoq va uddaburonroq deb hisoblaydi

Fasilitator – konsultant:

Predmetlar yoki jarayonlar bo‘yicha maslahatlar beradi.

Uning faoliyati quydagilardan iborat:

- Bilimni beradi
- Tajribani olib kiradi
- Assistentlik qiladi yoki faol ravishda yordam beradi yoki o‘z yechimlarini ishlab chiqadi
- o‘zini ishtirokchilardan ko‘ra tajribaliroq deb biladi.

Fasilitator-moderator:

Bahsda yoki qarorlar qabul qilishda faol o‘rinni egallamaydi.

Uning faoliyati quydagilardan iborat:

- muvoifiqlashtiradi (koordinatsiyalaydi)
- guruhda babsni yo‘naltiradi
- guruh a’zolarining samarali muloqot va motivatsiyasini ta’minalaydi
- baxslarni to‘g‘ri yo‘naltiradi
- konsensus (zarur nuqta)ga olib keladi
- qarorlarni qabul qilishni fasilitatsiyalaydi

- muammolarni hal qilishda yordam beradi
- umumlashtiradi
- kreativ
- vaqtı-vaqtı bilan fidbekni moderatsiyalaydi
- o‘zini teng huquqli ishtirokchi deb biladi.

Fasilitator-kuzatuvchi:

Kuzatadi va kuzatuvlari bilan o‘rtoqlashadi.

Uning faoliyati quyidagilardan iborat:

- sharhlaydi, izohlaydi
- mulohazalarни to‘ldiradi (tavsiyalar)
- o‘z hissiyotlari va taassutorlari bilan o‘rtoqlashayotganda guruh ko‘zgusi bo‘lib yuzaga chiqadi
- faqat keskin kelishmovchiliklarda aralashadi
- bahs yoki harakatlarda o‘zini neytral tutadi.